

## Farg'ona shahar hokimligida xalq deputatlari Farg'ona shahar kengashining o'n to'qqizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Farg'ona shahar hokimligida xalq deputatlari Farg'ona shahar kengashining o'n to'qqizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya ishida deputatlar, sektor rahbarlari, shahar hokimining o'rinnbosarlari, boshqarma, tashkilot, muassasa rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi.

Sessiya kun tartibda Farg'ona shahrida 2020 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda kelgusi yilgi rejalgarda bag'ishlangan shahar hokimining aholiga MUROJAATI eshitildi.



Shahar hokimining murojaatida shaharda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, ta'lif, fan, madaniyat, turizm, sport, sog'liqni saqlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, investitsiyalar, eksport, sanoat ishlab chiqarish, qurilish va bunyodkorlik ishlari, shuningdek, koronavirus pandemiyasi davrida "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida qilingan ishlar, "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" bilan ishlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qilingan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatlari tufayli hamda qabul qilayotgan Farmon va qarorlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishga keng zamin yaratib bermoqda.



Farg'ona shahrini 2020 yil ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'sish sur'atlarida bajarilishi, turmush tarzini yaxshilanishi, aholi jon boshiga xizmatlarning ortishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'lari va aholini real daromadlarini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Xususan, pandemiya natijasida karantin cheklovlari o'rnatilishiga qaramasdan, shaharda o'tgan davr davomida deyarli barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarimizni belgilangan rejalaridan oshirib bajarishga erishildi.

Jumladan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'naliishini oladigan bo'lsak, o'tgan 9 oy davomida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 4,9 trln.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 100,1 foizga bajarilib, jon boshiga 16,7 mln.so'mga to'g'ri keldi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ularda tadbirkorlik muhitini shakllanishiga qarab "yaxshi" (yashil), "o'rta" (sariq) va "qoniqarsiz" (qizil) hududlarga ajratgan holda baholandi. Reyting natijalariga ko'ra, "Yaxshi" baholangan 48 ta shahar va tumanlar qatorida Farg'ona shahri qayd etilib, "Yashil hudud"ga kiritilgan. 2020 yil davlat va mahalliy dasturlarga asosan Farg'ona shahrida jami 1 372 ta xonardonli 31 ta ko'p qavatli uylar joriy yilda foydalanishga topshirildi.

Hozirda, ushbu qurilgan uy-joylarni fuqarolarimiz tomonidan Ipoteka krediti asosida, 20 yil muddatga yillik 17 foiz asosida kreditga sotib olmoqdalar. Joriy yilning 11 oyi davomida 1019 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Koronavirus pandemiyasi davrida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, turizm va xizmatlar sohasiga iqtisodiy ko'mak berish maqsadida, 32 722 ta holatda 2,5 trln.so'mlik kredit mablag'lari ajratildi.

Kredit mablag'lari sanoat yo'naliishiga 1,2 trln.so'm, qurilish yo'naliishiga 550 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatishga 205 mlrd.so'm, savdo yo'naliishiga 520 mlrd.so'mni tashkil etdi. Farg'ona shahrida 2020 yilda 33 ta loyiha orqali 21,1 mln.dollarlik xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirilishi belgilangan bo'lsa, joriy yilning 9 oyida 30 ta korxona tomonidan 25,3 mln.dollarlik investitsiya jalb qilinib, yillik reja 119 foizga bajarilishiga erishildi.



Misol uchun, investitsiya hajmi "O'zbekiston-Koreya xalqaro universiteti"da 2,5 mln.dollar, "Uz Segang" (Koreya) korxonasida 2,5 mln.dollar, "Farg'ona IEM"da (Yaponiya) 4,4 mln.dollarni tashkil qildi.Farg'ona shahar Kengashi deputati J.Akbarov tomonidan tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, shifokorlar kasb etikasi, madaniyati haqida so'z yuritib, shahar tibbiyot birlashmasi, moliya bo'limiga o'z takliflarini bildirdi.

Sessiya ishida Farg'ona shahar kengashi deputati Zilola Abdullaeva mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning Farg'onada ijrosi yuzasidan savol bilan murojaat qildi. Shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri G.Xalilova ushbu yo'nalishda qilingan ishlar xususida to'xtalib o'tdi.Sessiya yakunida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun briefing o'tkazildi.

2020-12-12 18:04:55